



ARAB TILIDAGI MASDARLARNING O'ZBEK TILIDA ISHLATILISH HOLATLARI

Usmonov Murodjon Ibrohim o'g'li

Successland o'quv markazi "Arab tili" katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada arab tilidagi masdar (harakat nomi) tushunchasi va uning o'zbek tilida qo'llanilish holatlari tahlil qilinadi. Arab tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan masdarlarning shakllanishi, leksik va grammatik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, masdarlarning o'zbek tiliga moslashuvi, ularning ilmiy va rasmiy uslubda ishlatilish holatlari misollar asosida yoritib beriladi. Tadqiqot jarayonida arabcha masdarlarning o'zbek tilining lug'at boyligini oshirishdagi ahamiyati aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *Masdar (harakat nomi), arab tili, o'zbek tili, o'zlashma so'zlar, otlar, leksika, filologiya.*

Аннотация: *В данной статье анализируется понятие масдара (имя действия) в арабском языке и особенности его употребления в узбекском языке. Рассматриваются формы образования масдаров, заимствованных из арабского языка в узбекский, а также их лексические и грамматические особенности. Кроме того, на основе примеров освещаются процессы адаптации масдаров в узбекском языке и их использование в научном и официально-деловом стилях. В ходе исследования определяется значение арабских масдаров в обогащении словарного состава узбекского языка.*

Ключевые слова: *масдар (имя действия), арабский язык, узбекский язык, заимствованные слова, существительные, лексика, филология.*

Annotation: *This article analyzes the concept of masdar (verbal noun) in the Arabic language and its usage in the Uzbek language. The formation of masdars borrowed from Arabic into Uzbek, as well as their lexical and grammatical features, are examined. In addition, the adaptation of masdars to the Uzbek language and their use in scientific and official styles are illustrated through examples. The study also identifies the significance of Arabic masdars in enriching the lexical stock of the Uzbek language.*

Keywords: *masdar (verbal noun), Arabic language, Uzbek language, loanwords, nouns, lexicon, philology.*

Til jamiyat bilan birga rivojlanib boradigan murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Har bir xalqning tili tarixiy jarayon davomida boshqa tillar bilan o'zaro aloqada bo'lib kelgan. Natijada tillar o'zaro ta'sirga kirishib, lug'at tarkibi turli o'zlashmalar bilan boyib borgan. O'zbek tili ham bundan mustasno emas. O'zbek



tilining shakllanishi va rivojlanishida arab tilining ta'siri sezilarli darajada bo'lgan. Ayniqsa, Islom dini, ilm-fan, adabiyot va madaniyat sohalari orqali arab tilidan ko'plab so'zlar kirib kelgan. Bu so'zlar orasida masdar ya'ni harakat nomini bildiruvchi ot shakllari alohida o'rin tutadi. Masdarlar asosan harakat, holat va jarayonni bildiruvchi fe'llardan yasaladigan, zamonni anglatmaydigan ismlar bo'lib, o'zbek tilida ham faol qo'llaniladi.

Ushbu maqolada arab tilidagi masdarlarning o'zbek tilida ishlatilish holatlari, ularning leksik va grammatik xususiyatlari hamda zamonaviy o'zbek tilidagi o'rni yoritib beriladi.

Masdarlar haqida arabshunos olimlar ko'pgina fikrlar bildirganlar. Arab tilida masdar – biror zamonga dalolat qilmasdan bir ish yoki bir holatni bildirgan kalimadir. U fe'lining mazmunini umumlashtirib, jarayon yoki holatni ifodalaydi. Shu sababli masdar arab tilida fe'l ma'nosini ifodalovchi asosiy grammatik ism hisoblanadi. Bu fikrni tahlil qilish uchun masalan -“تَعْلِيم” ta'lim (o'rgatish), “تَأْثِير” ta'sir (ta'sir etish), “تَحْصِيل” tahsil (egallash) kabi so'zlarni keltirish mumkin. Aslida arabcha masdarlarning o'zbek tiliga kirib kelishi uzoq tarixiy jarayon bilan bog'liq. Asosan diniy ta'lim, madrasalar, yozma manbalar va ilmiy asarlar va Movarounnahr olimlarining arab tilini mukammal bilishi orqali, bu so'zlar o'zbek tiliga kirib kelgan. Dastlab, ilmiy-diniy atama sifatida qo'llanilgan masdarlar keyinchalik umumxalq leksikasiga singib ketgan. Bugungi kunda ko'pgina arab tilidagi masdar so'zlar kundalik nutqimizda faol ishlatiladi. Masalan:

عِبَادَة - ibodat qilish	إِشْتِرَاك – ishtirok etish
دَعْوَة -chaqirish	إِنْقِلَاب – (ag'darilish)
صَبْر -sabr qilish	مُعَالَجَة - (davolash,tuzatish)
تَوْبَة -tavba qilish	تَرْبِيَة - (tarbiya qilish)
مَعْرِفَة -ma'rifat,bilish	وَفَاء – (ishonch,vadaga vafo qilish)

Yuqoridagi masdarlarning ma'nolarida o'zbek tiliga tarjima qilinganida “-ish” qo'shimchasi namoyon bo'lmoqda va o'z mazmun-mohiyatida qo'llanilganining guvohi bo'lamiz. Bu so'zlar xalqimizning tiliga shunchalik singib ketganki, ko'pchilik bu so'zlarning arab tilidan kirib kelganini sezmaydi ham. Bu holat masdarlarning o'zbek tilida to'liq o'zlashganini ko'rsatadi. Arab tilidan kirib kelgan masdarlar o'zbek tilining grammatik tizimiga moslashgan holda qo'llaniladi. Ular o'zbek tiliga xos bo'lgan kelishik, egalik va ko'plik qo'shimchalarini qabul qiladi. Bu jarayon masdarlarning o'zlashuv darajasi yuqori ekanini ko'rsatadi.

Masalan:

ilm – ilmni, ilmga, ilmlar

ta'lim – ta'limning, ta'limga

Shuningdek, masdarlar yordamida yangi so'zlar yasaladi. Bu holat ularning o'zbek tilidagi faol leksik so'zga aylanganini tasdiqlaydi. Masalan: muolaja qiluvchi, ishtirok etuvchi, tarbiyachi kabi. O'zbek tilida arabcha masdarlar asosan ot vazifasida qo'llaniladi. Ular gapda ega, to'ldiruvchi yoki aniqllovchi bo'lib keladi.



Ba'zi masdarlar esa ko'chma ma'noda ham ishlatiladi. Masalan, tarbiya so'zi nafaqat tarbiyalash jarayonini, balki "tarbiyali inson" kabi iboralarda sifat ma'nosini ham ifodalaydi. Bu masdarlarning semantik imkoniyatlari boy ekanini ko'rsatadi. Arabcha masdarlar ilmiy va rasmiy uslubda keng qo'llaniladi. Chunki bunday darsliklar va rasmiy hujjatlarda masdarlar muhim terminologik vazifani bajaradi va nutqda ham keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, badiiy adabiyotda ham masdarlar obrazlilikni kuchaytirish va mazmunni boyitish uchun ishlatiladi. Bu esa ularning tilning barcha uslublarida faol ekanini ko'rsatadi.

Hozirgi davrda arab tilidagi masdarlar zamonaviy o'zbek tilida xahuz faol qo'llanilmoqda. Ayniqsa, ta'lim, fan, huquq va madaniyat sohalarida ularning o'rni sezilarli ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalarida, ilmiy tadqiqotlarda va rasmiy nutqda masdarlar keng ishlatiladi. Bu holat arab tilining o'zbek tiliga ta'siri hozirgi kunda ham davom etayotganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytishiniz mumkinki, arab tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan masdarlar tilimizning lug'at boyligini sezilarli darajada oshirgan. Ular tarixiy va madaniy aloqalar natijasida shakllanib, bugungi kunga qadar faol ishlatilayotgan so'zlarga aylangan. Masdarlar o'zbek tilining grammatik va semantik tizimiga moslashib, turli uslublarda keng qo'llanilmoqda. Tadqiqot davomida arabcha masdarlarning o'zbek tilida nafaqat asosiy ma'noda, balki ko'chma va kengaygan ma'nolarda ham qo'llanilishi ularning semantik imkoniyatlari keng ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, masdarlarning o'zbek tilida turli qo'shimchalar orqali yangi so'zlar yasashda ishtirok etishidan ularning o'zbek tilining lug'atida muhim o'rin tutishini ko'rishimiz mumkin. Til tizimiga to'liq singib ketganini tasdiqlaydi. Mazkur tadqiqot o'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarning kelib chiqishi va taraqqiyotini yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Irisqulov M. "Tilshunoslikka kirish" – Toshkent., 2009. B-
- 2.Karimov B. "Arab va o'zbek tillari qiyosiy tadqiqi"–Toshkent;
- 3.Mahkamov N. "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati". –Toshkent., 2013. B-
- 4.Madaliyev A. "O'zbek tilining izohli lug'ati". –Toshkent;
- 5.San'atulloh B. "Arab tili: Sarf va nahv fanidan darslik". – Toshkent., 2022. B-